



SOCIO-POLITICAL DIALECTIC FEATURES OF THE ELIMINATION OF SOCIAL DISTRIBUTION

Khusanboy Esonovich Askarov

*Independent researcher of Fergana State University
Fergana, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Social life, stratification, social stratification, social differences, socio-political, society, social inequality.

Received: 03.08.25

Accepted: 04.08.25

Published: 05.08.25

Abstract: This article examines the contradictory process of global changes in the modern world, associated with the rapid growth of social inequality, the solution of which is one of the most important problems determining the direction of societal development. This, of course, requires the development of new approaches to cognition, since existing knowledge does not fully correspond to its adequate solution in socio-political processes. "Social stratification" determines the essence of inequality through the internal division of people in a certain society, which is a complex process associated with their various social activities.

IJTIMOYIY TABAQALANISHNI BARTARAF ETISHNING IJTIMOYIY-SIYOSIY DIALEKTIK XUSUSIYATLARI

Xusanboy Esonovich Asqarov

*Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Farg'ona, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ijtimoiy hayot, tabaqalanish, ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy farqlar, ijtimoiy-siyosiy, jamiyat, ijtimoiy tengsizlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy dunyodagi global o'zgarishlarning qarama-qarshi jarayoni, ijtimoiy tengsizlikning jadal o'sishi bilan bog'liq bo'lib, uni hal qilish jamiyat rivojlanish yo'nalishini belgilaydigan eng muhim muammolardan biri tadqiq etilgan. Bu albatta, bilishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi, chunki mavjud bilimlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda uning adekvat yechimiga to'liq mos kelmaydi. "Ijtimoiy tabaqalanish" tengsizlikning

mohiyatini ma'lum bir jamiyatdagi odamlarning ichki bo'linishi orqali belgilaydi, bu ularning turli xil ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon ekanligi o'rganilgan.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ДИАЛЕКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УСТРАНЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ДИСКРИМИНАЦИИ

Хусанбоя Эсоновича АскарOVA

*самостоятельный соискатель Ферганского государственного университета
Фергана, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Социальная жизнь, стратификация, социальное расслоение, социальные различия, социально-политическое, общество, социальное неравенство.

Аннотация: В данной статье исследуется противоречивый процесс глобальных изменений в современном мире, связанный с быстрым ростом социального неравенства, решение которого является одной из важнейших проблем, определяющих направление развития общества. Это, безусловно, требует разработки новых подходов к познанию, поскольку существующие знания не полностью соответствуют его адекватному решению в социально-политических процессах. Изучено, что "социальная стратификация" определяет сущность неравенства через внутреннее разделение людей в определенном обществе, что является сложным процессом, связанным с их различной социальной деятельностью.

Kirish

Zamonaviylashib borayotgan jamiyatlarning o'ziga xos xususiyati — uning milliy, ijtimoiy, demografik, sinfiy, jins, diniy, moddiy va boshqa ko'plab xususiyatlardagi farqlari ijtimoiy tengsizlikning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tengsizlikning shakllarini butunlay yo'q qilib bo'lmaydi. Albatta, odamlar yoshi, jinsi, irqi, aql darajasi va boshqa ko'plab xususiyatlari bilan farq qiladi. Odamlarning fiziologik va aqliy xususiyatlaridan kelib chiqadigan farqlar tabiiy deb ataladi. Ijtimoiy farqlar, ya'ni turmush tarzi, jamiyatdagi ijtimoiy roli, mehnat taqsimoti va boshqalar kabi ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga keladigan farqlar, daromad darajasidagi farqlarga, har xil miqdordagi mulkka egalik qilish, hokimiyatdagi mavqeiga, uning jamiyatdagi obro' - e'tiboriga, ta'lim va yaxshi ijtimoiy mavqega erishishga olib keladi. Bu esa aynan ijtimoiy rivojlanishning turli darajalarini ijtimoiy tengsizlikning asosiga aylanishiga olib keladi. Shu sababli, bugungi kunda ushbu muammoni hal qilish

mumkinmi yoki yo'qligini, jamiyat va biznes uni qanday hal qilishi mumkinligini, siyosatchilar ijtimoiy tengsizlik muammosiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini tadqiq etish muhimdir. BMTning barqaror rivojlanish dasturiga muvofiq O'zbekiston 2030 yilgacha "Aholining kam ta'minlanganligini uning barcha shakllarida tugatish bo'yicha dasturlar va strategiyalarni amalga oshirishga yetarli va bashorat qilinadigan mablag'ni ta'minlash uchun turli manbalardagi, jumladan, rivojlanish maqsadida hamkorlikni joylantirish asosidagi salmoqli zaxiralarning safarbar etilishiga erishish"[1.] maqsadini o'z oldiga qo'ygan. Bu esa ijtimoiy-siyosiy muammolari orasida ijtimoiy tengsizlik muammosi jamiyat taraqqiyoti jarayonlariga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri ekanligini isbotlaydi. Odamlarning iqtisodiy holati va ijtimoiy mavqeidagi farqlar ularning siyosatdagi mavqei va imkoniyatlariga, shuningdek, fuqarolik aloqalariga bevosita ta'sir qiladi. Ijtimoiy tengsizlik iqtisodiy asoslarda o'sib boradi, ammo u siyosiy o'lchovga ega bo'lib, fuqarolarning umumiy muammolarni hal qilishda ishtirok etish darajasiga ta'sir qiladi. Ijtimoiy tengsizlik siyosiy va huquqiy tengsizlikda takrorlanadi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik haddan tashqari ko'payib, siyosatga ekstrapolyatsiya qilinganida, bu muammo ayniqsa keskinlashadi. Yuqori martaba va boylikka ega bo'lganlar davlatda o'zlarining ustun mavqeini mustahkamlashga harakat qilishi natijasida o'zlarini ijtimoiy qiyinchiliklarini boshdan kechirayotganlar odamlarga yanada qiyin bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar jamiyatning rivoji va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalar va loyihalarni ishlab chiqish, uning har bir sohalarga oid konsepsiya, dasturlarni yaratish, ijtimoiy muammolarni oldini olish kabi ratsional faoliyatni kasb etadi. Faylasuf V.G.Afanasyevning fikricha, "Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar ijtimoiy subyektlarning o'zaro ta'sirini maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishi"[2.121.] ekanligini nazarda tutadi. Bizningcha, bu jarayonda ijtimoiy tabaqalanishni bartaraf etishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar samarali usullarni targ'ib qiladi. Tadqiqotchi S.Yuldashev ta'kidlaganidek, "ijtimoiy-madaniy texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida odamlarning ehtiyojlariga javob sifatida paydo bo'lgan, shu bois ular boshqaruv tizimi kundalik hayotning zarur tarkibiy qismi sifatida rivojlanmoqda. Bu ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni aniqlashga yo'nalgan qarorlarni tayyorlash, ularni rivojlantirish va amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Huquqiy demokratik davlatda jamiyat ma'naviy hayotini takomillashtirish, uning intellektual salohiyatli (jamiyatni ilmiy boshqarishda) vakillarini rag'batlantirish nuqtai nazardan ijtimoiy-madaniy texnologiyalar muhim ahamiyatga ega"[3.12.].

Aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishi har qanday mamlakat uchun xos bo'lgan xususiyat hisoblanib, uning o'ziga yarasha ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud. Ijtimoiy jihatdan tabaqalanishning ijobiy xususiyati mamlakatda o'rta qatlamni rag'batlantirishga qaratilgan aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining amalga oshirilishi, bunda aktiv ijtimoiy himoya dasturlariga ustuvorlik berilishi natijasida jamiyatning ayrim ijtimoiy guruhlari o'rtasida raqobatning ortishiga erishiladi va mamlakat iqtisodiyoti ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligi ko'rsatkichi orta boradi. Ya'ni, aholi daromadlari ortgani sari jamiyatning ijtimoiy qiyofasi takomillashib boradi. Bu bilan bir qatorda, hukumat tomonidan aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishining oldini olish va uni kamaytirishga qaratilgan dasturlarning mutazam ravishda amalga oshirilmasligi tadqiqotchilar fikricha quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'ladi.

“Birinchidan, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi sonining va noroziliklarning ortishiga;

ikkinchidan, ijtimoiy muammolarning ko'payishi va ijtimoiy tanglik holatining kuchayishiga;

uchinchidan, davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish, jumladan sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlashni moliyalashtirish xarajatlarining ortishiga;

to'rtinchidan, aholining turli ijtimoiy guruhlari, iqtisodiyotning turli tarmoqlari, qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi ijtimoiy qarama-qarshilikning ortishiga”[4.270.] sabab bo'ladi.

“2025 yil yanvar oyida Jahon iqtisodiy forumi turli mamlakatlardan akademik doiralar, biznes, hukumat, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati vakillarining 900 dan ortiq ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarini o'z ichiga olgan navbatdagi Global xavflar hisobotini (Global Risks Report 2025) e'lon qildi. Hisobotda “global xavf” - jahon iqtisodiyotiga, demografik vaziyatga yoki tabiiy resurslarga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hodisa yoki omil sifatida belgilangan.

Tadqiqotda “global xavflar” beshta toifaga ajratilgan:

iqtisodiy (inflyatsiya, qarz inqirozi, ishsizlik, resurslar taqchilligi),

ekologik (global isish, bioxilma-xillikning yo'qolishi, qurg'oqchilik, suv toshqinlari),

texnologik (kiberhujumlar, texnologik nosozliklar, ma'lumotlar maxfiyligining yo'qolishi),

ijtimoiy (daromadlar tengsizligi, demografik o'zgarishlar, migratsiya inqirozlari),

geosiyosiy (savdo urushlari, harbiy mojarolar, siyosiy beqarorlik).

Global Risks Report 2025 ma'lumotlariga ko'ra, qisqa muddatli istiqbolda global xavflar dunyo miqyosida jiddiylik darajasiga ko'ra quyidagi tartibda joylashgan: yolg'on axborot, ekstremal ob-havo hodisalari, qurolli to'qnashuvlar, ijtimoiy tabaqalanish va kiberjossuslik”[5.],

bu esa global miqiyosda kechayotgan ijtimoiy tabaqalanish jarayonini bartaraf etish nafaqat ijtimoiy masala balki ijtimoiy-siyosiy masala ekanligini ko'rsatadi.

Faylasuf olim Dj. S. Mill qashshoqlik siyosiy zulmning bir ko'rinishi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Kambag'allar bunday yovuzlik insoniyat hozirgacha kurashgan boshqa yovuzlik turlariga teng deb ishonishsa umuman adashmaydilar"[6.45.]. Agar to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlik ommaning despotizm ostida siyosatga qo'shilishiga to'sqinlik qilsa, unda ko'plab demokratik jamiyatlarda bu umumiy aholining kambag'alligi va ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi nofoalligida namoyon bo'ladi. Bunday o'zgarishlar natijasida siyosiy sohada kuchli antidemokratik tendensiyalar amal qila boshlaydi. Jamiyatning qutblanishi paydo bo'ladi, natijada befarqlik va passivlik bir qutbda to'plangan, siyosiy qarorlar qabul qilish sohasini monopollashtirish va jamoatchilikka yopish istagi boshqa tomonda rivojlana boshlaydi. Jamiyatning nochor qatlamlari marginallashtirish, bu ularni norozilikning noqonuniy shakllariga undaydi. Bu esa o'z manfaatlarini omma oldida ifoda etish va himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'lib, ular siyosiy ekstremizmning ijtimoiy asosini tashkil etadi. Ijtimoiy adolat va umumiy manfaatning axloqiy asoslariga amal qilmaslik ijtimoiy birdamlikni yo'q qiladi. Bizningcha, ijtimoiy tengsizlikning o'sishi bir necha kishining hokimiyat pozitsiyalarini mustahkamlaydi va ko'pchilikning siyosatda ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi, ya'ni demokratiyaga zid keladi va avtoritar tendensiyalarning rivojlanishiga yordam beradi. Shu sababli, global demokratik amaliyot ijtimoiy tengsizlikni tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqadi. Buni oldini olish uchun davlat budjetidan mablag' ajratadi yoki maxsus fondlar orqali milliy daromadni kambag'allar foydasiga qayta taqsimlaydi. Davlat va fuqarolik jamiyati tizimida jamoat sohasida ifodalanmagan guruhlarining manfaatlarini va talablarini to'playdigan tuzilmalar shakllanadi. Ushbu chora-tadbirlarning siyosiy maqsadi ijtimoiy tengsizlikni oqilona chegaralarda ushlab turish, uning salbiy oqibatlarini yumshatish va aholi o'rtasida fuqarolik faolligini qo'llab-quvvatlashdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ijtimoiy tengsizlik darajasi va siyosiy boshqaruv shakllari o'rtasidagi ma'lum bir bog'liqlikni aniqlash mumkin. Uzoq muddatda tengsizlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar avtoritarizmga moyil bo'lib boradi. Demokratiya esa fuqarolarning siyosiy jarayondagi ishtirokini kengaytirish orqali uni u yoki bu tarzda faollashuv imkonini beradi. "Globallashtayotgan dunyoda liberal demokratiya oldida turgan muammolarga javoban G'arb ijtimoiy-siyosiy tafakkuri aholining keng qatlamlarini davlat siyosatiga jalb qilish yo'llarini izlamoda. "Inklyuziya" tushunchasi siyosatshunoslik va amaliy siyosat leksikoniga mustahkam kiritilgan. Maslahat demokratiyasi nazariyasi davlat siyosatini shakllantirish uchun milliy aks

ettirish zarurligini asoslaydi. Ijtimoiy tengsizlik va uning siyosiy ko‘rinishlarini minimallashtirish muammosi bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida birinchi o‘ringa chiqmoqda. “Tenglik o‘lchovi” demokratiyaning sifat ko‘rsatkichlari orasida muhim o‘rin tutadi”.

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish o‘ziga xos jarayon bo‘lib, unda odamlar ijtimoiy maqomi, hokimiyati, boyligi va obro‘si kabi omillarga ko‘ra turli tabaqalarga bo‘linishi nazarda tutiladi. Bu tabaqalar bir-biridan farq qiladi va odamlarning hayot tarzi, imkoniyatlari va huquqlariga ta’sir qiladi. Jamiyat taraqqiyotida mavjud bo‘lgan ijtimoiy tabaqalanishning asosiy shakllari sifatida quldorlik tizimi, kasta tizimi (diniy, ijtimoiy tizim sifatida) bu ikkisi tarixiy hisoblanadi. Zamonaviylashgan ijtimoiy tabaqalanish insonning ijtimoiy maqomi asosan uning boyligi, kasbi va ta’limiga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bizningcha, bunda qat’iy o‘zgarmas qoidalar emas, balki ijtimoiy mobillik imkoniyatidan kelib chiqib mavjud bo‘ladigan jarayonlarga aytilishi kerak.

Tahlil va natijalar

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish dialektikasining asosiy jihatlari sifatida tarixiylik, iqtisodiy determinizm, hokimiyat(ijtimoiy-siyosiy), mafkuraviy va ijtimoiy o‘zgarishlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Demak unga ko‘ra ijtimoiy tabaqalanishning tarixiyliigi ijtimoiy tabaqalanish tarixiy jarayon bo‘lib, har bir jamiyatda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. Tarixiy sharoitlar, iqtisodiy munosabatlar va siyosiy kurashlar ijtimoiy tabaqalanishning shakllanishiga ta’sir qilganligini kuzatish mumkin. Tadqiqotchilar fikricha, “Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy nazariyalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida insonlarning mulkchilik shakllari va uni jamg‘arish xususiyatlari, aholi daromadi va iste’moli darajasi, hokimiyat va undan foydalana olish, jamiyatning boshqa a’zolari o‘rtasida obro‘ e’tiborli bo‘lishga intilishlari jamiyatning ijtimoiy jihatdan tabaqalanishini vujudga keltiradi”[8.10.]. Bizningcha, tarixiy jarayonlarda ham mazkur xususiyatlar uchraydi. Jumladan birinchidan, tarixiy nuqtai nazardan “Aristotelning mutanosib tenglik tamoyili adolatning asosi sifatida yoki qayta taqsimlash choralarining adolatsizligini tan olinishi, hokimiyatda tenglik tamoyilini amalga oshirish zarurligi, davlatda ko‘p sonli o‘rta qatlamni yaratish”[9.296.] bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni kuzatish mumkin. Platonning qarashlarida esa “ijtimoiy voqelikda davlat tomonidan tartibga solish va tartibga solish choralari yordamida sun’iy ravishda yaratilgan tengsizlik-tenglikning ideal holatini mujassamlashtirish”[10.79.] zarurligini ta’kidlaydi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tabaqalanishni iqtisodiy determinizmga ham bog‘liq bo‘lib, u iqtisodiy munosabatlarni ijtimoiy tabaqalanishning asosiy omili sifatida tadqiq etishga

majburlaydi. Unga ko'ra boylik va resurslarning taqsimlanishi ijtimoiy maqomni belgilaydi va ijtimoiy tabaqalanishni mustahkamlaydi. Rivojlanish va uning determinantlari haqidagi bilimlar real mavjud tendensiyalar, kuchlar, omillarni aniqlash imkonini beradi, ularni tushunish ijtimoiy tuzum ideallari, maqsadlariga erishishga xizmat qiladi, falsafiy kategoriyalarning empirik va evristik imkoniyatlarini ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish tamoyillari sifatida kengaytiradi, dunyoqarash inqirozining sabablari haqidagi tasavvurlarni aniqlashtirish, uni bartaraf etishning yanada samarali usullarini tanlash imkonini beradi. Ijtimoiy tabaqalanishni deterministik jarayoni zaruriyat, tartiblilik, uyushqoqlik g'oyalari asosida quriladi. Dunyoning mifologik, ilmiy, diniy manzaralari - har biri sababiyat g'oyalarining shakllanishiga hissa qo'shgani singari mazkur jarayonlar ham falsafiy, konkret-ilmiy tasavvurlar evolyutsiyasi yondashuvida tizimli tushunishga qarab boradi.

Xulosa

Hokimiyatning ijtimoiy-siyosiy dialektik xususiyatlari sifatida ijtimoiy tabaqalanish hokimiyat uchun kurashning natijasidir. Bunda hokimiyatdagi kuchli guruhlar o'z imtiyozlarini saqlab qolishga harakat qiladi, muholifat (ezilgan) guruhlar esa tenglik va adolat uchun kurashadi. Bu esa ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ijtimoiy tabaqalanish muntazam o'zgarishlarni taqozo qilishi bilan ahamiyatlidir. Davlat va xalq hayotida yuz beradigan har qanday yangilanish o'ta murakkab va serqirra jarayon bo'lib, u hech qachon silliq va tekis kechmasligi, yillar davomida shakllangan, ustuvor xususiyat kasb etgan qarash va yondashuvlar bir kunda, avtomatik tarzda o'zgarib qolmasligi barchamizga ayon haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсадлар ва вазифалар. <https://uzbekistan.un.org/uz/about/about-the-un>
2. Афанасьев В.Г. Социальная информация и управление обществом. - Москва: Политиздат, 1975.
3. Юлдашев С. У. Жамиятни илмий бошқаришда ижтимоий-маданий технологияларнинг ўрни. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2020.
4. Berg J. 2015. «Income support for the unemployed and the poor», in J. Berg (ed.): Labour markets, institutions and inequality. Building just societies in the 21st century (Geneva, ILO; Cheltenham, Edward Elgar).
5. Барқарор иқтисодий ўсиш: таҳдидлар ва имкониятлар. <https://strategy.uz/index.php?news=2059&lang=uz2>

6. Милль Дж.Ст. Основания политической экономии с некоторыми из их применений к общественной философии / 1-е полн. изд. в 2 т. — СПб.
7. Diamond L., Morlino L. 2004. The Quality of Democracy // Journal of Democracy. Vol. 15. № 4.
8. Бахтиёров Б. Ўзбекистонда аҳолининг ижтимоий жиҳатдан табақаланиш мезонлари ва тенденциялари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2018, 10(118).
9. Аристотель. Большая этика // Аристотель. Соч.: в 4 т. Т. 4: пер. с древнегреч. М.: Мысль, 1983.
10. Платон. Государство // Платон. Филеб. Государство. Тимей. Критий: пер. с древнегреч. М.: Мысль, 1999.